



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2024 - yil yanvar- dekabr

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi*
Тел. 71-203-88-20(21)

(* Toshkent shahri savdo ko'rsatkichlarida
yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr oyi, foizda)



2025-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 12 984 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 177 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 12 807tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 105 341,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,9 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 40 823,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 64 517,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 115,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 605,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 122,1 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar- dekabr oyi)

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	105 341,3	110,9
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	9 405,8	113,9
Bektemir	3 880,9	122,8
Yunusobod	10 778,9	108,4
Mirzo Ulug'bek	8 357,9	110,0
Mirobod	7 735,4	110,1
Shayxontohur	11 591,3	108,3
Olmazor	7 416,9	111,8
Sirg'ali	6 156,8	109,7
Yakkasaroy	8 466,5	116,9
Yashnobod	8 678,9	117,4
Yangihayot	1 589,9	126,7
Chilonzor	17 325,6	105,4

2024-yilning yanvar- dekabr oylarida 2023-yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (126,7 %), Bektemir (122,8 %) va Yashnobod (117,4 %) tumanlarida chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

(* Toshkent shahri savdo ko'rsatkichlarida yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda)

YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar- dekabr, mldr so'mda)

103,6 % 117,2 % 114,6 % 112,1 % 110,9 %



So'nghi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,2 % ni tashkil qildi.

2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida o'sish sur'ati **110,9 %** ni tashkil qildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

4

(Ulushi, foizda)




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 16,4 % bilan 17 325,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,5% bilan 1 589,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so 'm



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 64 517,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 15,9 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 61,2 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,7 % ga o'sdi va 40 823,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 38,8 % ulushiga to'g'ri keldi.




118,7	Shayhontohur
122,9	Mirobod
124,1	Chilonzor
125,7	Bektemir
128,6	Olmazor
145,0	Yangihayot



Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

104,1	Bektemir
106,1	Yangihayot
113,7	Yunusobod
116,7	Uchtepa
124,0	Sirg`ali
126,3	Yakkasaroy
127,9	Yashnobod

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (18,1%), Uchtepa (12,3%) va Yunusobod (10,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 38,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (13,9 %), Shayhontohur (12,7%), Yakkasaroy (10,7%), Yashnobod (10,4%) tumanlarida kuzatildi.



Yirik korxonalar
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



(Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda)

Toshkent shahri

34 237,3

Yangihayot

8 759,7

Uchtepa

31 300,5

Chilonzor

62 796,7

Bektemir

61 601,3

Yunusobod

28 313,3

Mirzo Ulug'bek

25 016,3

Mirobod

50 491,9

Shayxontohur

31 541,0

Olmazor

18 169,8

Sirg'ali

36 067,8

Yakkasaroy


61 979,9

Yashnobod

28 464,8

2024-yilning yanvar-dekabr oylari holatiga o'ttacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 34 237,3 ming. so'mni 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,0 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Chilonzor (62 796,7 ming. so'm), Yakkasaroy (61 979,9 ming. so'm) va Bektemir (61 601,3 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar- dekabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-dekabr)

	Jami, mlrd. so'm	2023 -yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	2 605,7	122,1
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	96,6	51,1
Bektemir	542,7	82,1
Yunusobod	417,5	187,1
Mirzo Ulug'bek	328,3	95,5
Mirobod	24,2	25,7
Shayxontohur	424,9	188,9
Olmazor	109,4	2,1 m.
Sirg'ali	73,7	93,1
Yakkasaroy	49,0	82,5
Yashnobod	240,9	186,3
Yangihayot	-	-
Chilonzor	298,5	4,0 m.

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar- dekabr)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-dekabr)

Toshkent sh.	2 605,7
Uchtepa	96,6
Bektemir	542,7
Yunusobod	417,5
Mirzo...	328,3
Mirobod	24,2
Shayxonto...	424,9
Olmazor	109,4
Sirg'ali	73,7
Yakkasaroy	49,0
Yashnobod	240,9
Yangihayot	-
Chilonzor	298,5

Toshkent shahari bo'yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 605,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 122,1 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 2 344,0 mlrd.so'mni (158,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 261,7 mlrd so'mni (110,8 %) tashkil etdi .


2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 2 344,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (1 270,8 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 1 270,8 mlrd. so'm  48,8 %	Non va non mahsulotlari 292,9 mlrd. so'm  11,2 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 110,4 mlrd. so'm  4,2 %
Tovuq go'shti 103,7 mlrd. so'm  4,0 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 56,8 mlrd. so'm  2,2 %	Tuxum 59,6 mlrd. so'm  2,3 %
Ziravorlar 150,9 mlrd. so'm  5,8 %	Sut va sut mahsulotlari 187,0 mlrd. so'm  7,2 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil vem – xashak 0,2 mlrd. so'm  0,01 %
Tuzlamalar 60,5 mlrd. so'm  2,3 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 48,9 mlrd. so'm  1,9 %	Nooziq-ovqat tovarlar 2,4 mlrd. so'm  0,1 %

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 261 273,0 mln. so'mni (110,8 %) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosи 219 567,2 mln. so'm, qo'y va echkilar – 33 257,7 mln. so'mni, otlar – 8 261,4 mln. so'mni, parrandalar – 636,7 mln. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosи hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 130 415,3 mln. so'm  5,0 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 39 250,8 mln. so'm  1,5 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 49 901,2 mln. so'm  1,9 %
Qo'yilar 26 048,7 mln. so'm  1,0 %	Otlar 8 261,4 mln. so'm  0,3 %	Echkilar 7 209,0 mln. so'm  0,3 %
Kurka, o'rdak, g'oz 161,2 mln. so'm  0,01 %	Tovuqlar 65,0 mln. so'm  0,002 %	Quyonlar 259,7 mln. so'm  0,01 %
Qushlar 150,8 mln. so'm  0,01 %	      	

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 4 763 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 47 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 716 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	27 606,7	111,6
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	242,6	120,1
Bektemir	205,9	118,6
Yunusobod	1 473,4	113,9
Mirzo Ulug'bek	1 196,5	115,4
Mirobod	1 458,3	179,4
Shayxontohur	2 487,2	92,0
Olmazor	679,0	114,4
Sirg'ali	683,5	110,4
Yakkasaroy	1 034,3	105,9
Yashnobod	730,7	113,2
Yangihayot	193,9	149,9
Chilonzor	1 098,7	127,3

2024-yilning yanvar- dekabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 27 606,7 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 61,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	60 506,7	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	1 311,2	2,2
Bektemir	1 859,8	3,1
Yunusobod	8 437,4	13,9
Mirzo Ulug'bek	1 818,2	3,0
Mirobod	10 440,3	17,3
Shayxontohur	6 090,5	10,0
Olmazor	737,0	1,2
Sirg'ali	20 370,7	33,7
Yakkasaroy	3 341,5	5,5
Yashnobod	2 041,9	3,4
Yangihayot	1 325,2	2,2
Chilonzor	2 733,0	4,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (20 370,7 mlrd. so'm), Mirobod (10 440,3 mlrd. so'm) va Yunusobod (8 437,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash* va *texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 60 506,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,2 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 18 916,6 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 116,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 41 590,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 134,1 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Toshkent shahari bo‘yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 247 099,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

31,1 %

76829,2 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

68,9%

170270,3 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 170 270,3mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shaharida ushu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 68,9 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	247099,5	109,9
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	12312,8	113,5
Bektemir	3565,7	121,1
Yunusobod	20768,1	108,3
Mirzo Ulug'bek	17811,0	113,9
Mirobod	24965,0	105,3
Shayxontohur	13961,7	103,9
Olmazor	28710,5	111,7
Sirg'ali	11460,3	113,9
Yakkasaroy	25670,5	113,5
Yashnobod	26568,4	108,8
Yangihayot	5780,0	141,8
Chilonzor	23362,7	105,1

2025-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 16 676 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 257 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 16 419 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari ega eng yirik korxonalar Yangihayot (141,8 %), Bektemir (121,1 %) va Mirzo Ulug`bek (113,9 %.) tumanlarida kuzatildi.